



**MAKTABGA TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINI PAPE
MASHE TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IJODIY RIVOJLANISHINI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIYA VA AMALIYOTDAGI HOLATI**

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna
yaqubovamuhabbat90@gmail.com

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15230299>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ijodiy rivojlanishiga yondashishda pape-mashe texnologiyalarining ahamiyati o'rganilgan. Maqolada, pape-mashe texnologiyasining amaliyotdagi holati hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Pape-mashe, maktabgacha ta'lim, ijodiy rivojlanish, tarbiyalanuvchilar, texnologiyalar, atrofdagi olam, o'quv o'yinlari va o'yinchoqlar, pedagogik yondoshuvlar.

Hozirgi kunda ilmiy manbalarda, ota-onalar o'rtasida, hatto pedagoglar orasida maktabga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari egallashi kerak bo'lgan ma'lumotlarning ko'p ekanligi haqida fikrlar yuritilmoqda.

Haqiqatan ham, maktabgacha ta'lim tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari ta'lim jarayonidagi murakkabliklar tufayli ayrim bolalarda qiziqishlar so'nib borayotganini guvoni bo'lmoqdamiz. Ular olamni o'z imkoniyatlari darajasida ko'radilar. Maktabga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonch hissi qanchalik to'g'ri, sog'lom va tabiiy shakllantirilgan bo'lsa, u keyingi bosqich maktabda sifatli ta'lim olishi yanada osonlashadi. Bu o'rinda bolalar uchun muhim sanalgan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalaridan biri bu – ijodiy rivojlanish hisoblaniladi. *Ijodiy rivojlanish bolaning yangi g'oyalar yaratishi, muammolarni yangi usulda hal qilish imkoniyatlari va shu bilan birga o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonidir.* Bola ijodiy rivojlanishi olamni anglashidagi muhim bo'g'ini sanalinadi, bolaning ijodiy olamga bo'lgan qiziqishi aniqlanishi natijasida layoqatlari, iste'dodlari rivojlana boradi. Shuning uchun ijodiyot olamiga bolalarni olib kirish zarur sanalinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari, olamni anglash va bilish jarayonida, o'z imkoniyatlarini sarhisob qilib, o'ziga bo'lgan ishonch hosil qilish jarayoniga nisbatan ijodiy rivojlanish shakllantirilgan bo'lsagina, bolalarda barcha ta'lim, shaxs shakllanishi ijobiy amalga oshiriladi.

Ammo hayotda ko'p hollarda boladagi qiziqishlari, intilishlar, layoqatlar bilan amaldagi belgilangan qat'iy tartib o'rtasida keskin ziddiyatlar yuzaga keladi. Bolaning boshqa soxaga bo'lgan qiziqishi tufayli kattalar tomonidan belgilab qo'yilgan majburiyatlarni qoniqarli tarzda bajara olmaydi. Ya'ni rasm chizishni yaxshi ko'rgan bola kattalarning buyruqlari tufayli dutor chalishni ijobiy o'rgana olmaydi. Ikkinchi tomondan esa bolaga nisbatan “bilish kerak”, “o'rganish kerak”, “doimo birinchida bo'lish kerak”, “orqada qolma” kabi talablari qo'yiladi. Natijada ikki xil istak o'rtasida qattiq kurash ketadi. Manashu kurash jarayonida bola hohlamagan tarzda o'ziga ishonchsizligi rivojlanib ma'nun qaram insonga aylanib qoladi. Bu esa bolaga bo'lgan kuchli talab bolani ruxiyati sinishiga ham olib keladi. Bolaning biror narsani sitqi dildan bajarishi yaratayotgan narsalariga kreativ yondashishi bu tarbiyalanuvchining kelajagini belgilab qo'yuvchi omil sanalinadi.

Mana shu jarayonlarda ziddiyatlarni osonlashtirib bolani olamga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi jarayon – *ijodiy rivojlanishidir.*

Olimlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida ijodiy faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi omillar tajriba jarayonida o'rganilishi natijasida quydagi xulosaga keldilar.



Atrofdagi olam Bolarga atrofigizdagi hamma narsa – odamlar, mashinalar, binolar, tabiat haqida so'zlashish juda ham yoqadi. Bu bolaning nutqini, xotirasini, tasavvurini rivojlantirishga yordam beradigan va umuman olganda, bolaning ko'plab shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda muhim nuqta bo'lgan kattalar va bola o'rtasidagi aloqa vositasi sanalinadi.

O'quv o'yinlari va o'yinchoqlar Bolalar ijodiy rivojlanishida o'yin faoliyatining o'rni beqiyos sanalinadi va tasavvur olami kengayib boradi, muammolarni mustaqil hal qilishni o'rganadi va fikrlarini erkin bayon eta olishga yordam beradi. O'yinlar orqali bolalar yangi g'oyalar yaratish, xayoliy dunyo qurish va turli tuman rollarda o'zlarini sinab ko'radilar. Bu jarayon orqali bolalar kreativ fikrlashini, mantiqiy yondashuvni va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib boradilar.

Pedagogik yondoshuvlar: Bolalarning ijodiy rivojlantirishda tarbiyachilar va pedagoglarning roli katta. Ijodiy o'qitish yondoshuvlarini amalga oshirish, bolalarga yangi ko'nikmalarni egallashda erkinlik berish va ularni o'z qobiliyatlarini kashf qilishga undash kerak. Tarbiyachilar ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi, quvnoq va qiziqarli muhit yaratishlari zarur sanalinadi.

Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari o'zining ko'p qirrali ijodiy layoqatlarini namoyon etish, ko'rsatish, rivojlantirish, amaliyotga tatbiq etish, ijodiylik jihatidan shaxsiy realizatsiyasini amalga oshirishga bo'lgan ishtiyoq juda yuqori bo'ladi. Har bir 6-7 yoshgacha bo'lgan bolada tabiiy ravishda o'z "Men"ini namoyon qilishga harakat bo'ladi va mana shu harakat ko'p hollarda ijodiy rivojlanishini ko'rsatib berish orqali vujudga keladi. Bolada ijodiy rivojlanishini kurtaklari ilk iste'dod namunalarini anglash, pape mashe texnologiyasi asosida yasash va qog'ozdan yasalgan buyum va o'yinchoqlarni ko'rish orqali mehnatga o'rganish, o'z qobiliyatini rivojlanishi uchun harakatda bo'lish tengdoshlari orasida o'zini ko'rsata olish, tengdoshlari ichida ijtimoiy makonda o'z o'rniga ega bo'lish va ijodiy rivojlanishinilarini namoyon etish orqali o'z ijtimoiylashuvini ta'minlash orqali kechadi. Mana shu jarayonlar esa maktabgacha ta'lim faoliyati jarayonida sodir bo'ladi. Binobarin, maktabgacha ta'lim tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilariga pape mashe texnologiyalari asosida ijodiy rivojlanishini shakllantirish uchun mana shu ikki uzviy bog'liq makondagi maqsadli pedagogik faoliyat talab etadi.

Ijodiy qobiliyat asosida tarbiyalanuvchilarda shakllanadigan fazilatlar to'plami kelajakda uning qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, har qanday kasbiy faoliyatda unga yordam beruvchi va ijodiy yondashuvini ta'minlaydigan asos bo'ladi. Shunga ko'ra, maktabga tayyorlov guruhida pape mashe mashg'ulotlari badiiy-estetik tafakkur, dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltiriladi va bolalarda parallel ravishda pape mashe buyumlarini yasash, turli shakllar yarata olish, uni shaxsan amaliy ko'rsata olish, yasagan buyumlaridan huzurlana olish, ulardan o'ziga psixo-emotsional quvvat olishni bilish, pape mashe texnologiyasi asosida yasalgan o'yinchoq va buyumlar haqida fikr yuritish orqali o'z faoliyatida muammo, tashvish, konflikt vaziyatlar, murakkabliklarga yo'l topa olishda namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, pape-mashe texnologiyalari asosida ijodiy rivojlanishni rivojlantirishda san'at turlarining uyg'unligi qatorida, nazariy bilimlar va amaliyotning muvofiq tarzda mutanosib shakllantirilishi, bolani buyum va o'yinchoqlar yasashga o'rgatish barobarida pape-mashe texnologiyalari asarlarini yaratish, ulardan zarq ola bilish, pape mashe asarlarini tushunish va baholay olishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Maktabga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilaridan pape mashe texnologiyalari asosida ijodiy rivojlanishini shakllantirishning amaliy ahvolini tahlil qilish quyidagi nomuvofiqliklar, qarama-qarshiliklar, amaliyot bilan nazariy talablar o'rtasidagi farqlarning mavjudligini ko'rsatdi:

- *Nazariy jihatdan* pape-mashe texnologiyalari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblaniladi. Ammo amaliyotda bu texnologiyaning qo'llanilishi ko'pincha qiyinlashadi. Pedagoglar va tarbiyachilar ushbu texnikani to'g'ri va samarali ishlatish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasliklari mumkin. Natijada, bolaning ijodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijodiy va amaliy faoliyatlar to'liq amalga oshirilmaydi.

-Pape-mashe texnologiyasi orqali ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun pedagoglarning maxsus malakasiga ehtiyoj bor. Biroq, amaliyotda pedagoglarning ushbu texnologiyaga doir



tajribalari yetishmasligi mumkin. Bu, o'z navbatida, bolalar uchun mazmunli va samarali ijodiy faoliyatlarni tashkil etishda muammo tug'dirishiga sabab bo'ladi;

-Bola ijodkorligini shakllantirishda uning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinishi zarur. Ammo amaliyotda, ko'pincha barcha bolalar uchun yagona yondashuv qo'llanadi. Pape-mashe texnologiyasini turli yoshdagi va turli rivojlanish bosqichidagi bolalar uchun moslashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;

-Amaliyotda tarbiyachilar ko'pincha bolalarga tayyor yechimlar yoki aniq ko'rsatmalar berishadi, bu esa bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish o'rninga, ularning o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Pape-mashe texnologiyasi orqali ijodiy rivojlanishini rivojlantirishda bolalar o'z qo'llari bilan ishlash, yangi shakllar yaratish va ijodiy yondoshuvlarni sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;

Dunyo miqyosida bolalar ijodiy rivojlanishi va kreativligini o'stirish va ta'minlash bo'yicha yuzlab yangi metodikalar amaliyotga joriy etilayotganligi, kreativlik, pape mashe texnologiyalariga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligi, maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar ijodiy rivojlantirishida pape mashe texnologiyalari asosida qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishga bo'lgan ilmiy e'tiborning kattaligi, biroq milliy ta'lim tizimida dunyo tajribasini tanqidiy va ijodiy o'rganib, uni milliy ta'lim tizimiga tadbiiq qilinishi asoslari yaratilmaganligi kabilarni qayd etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi 4-fevral 2022-yil.
2. Выготский Л.С. Психология искусства (idem, pdf)/ Общ. ред. В.В.Иванова, коммент. Л.С.Выготского и В.В.Иванова, вступит. ст. А.Н.Леонтьева. 3-е изд. – М.: Искусство, 1986. – 573 с.
3. Qodirova. N. R. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – С. 109-111.